

XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI: TURISTIK SALOHIYAT, TRENDLAR, MUAMMOLAR VA STRATEGIK YECHIMLAR

Alfraganus Universiteti

Xalqaro turizm menejmenti

kafedrası katta o‘qituvchisi

Abduraxmanov Shoxrux Abdujabbarovich

TDIU Tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Afrikaning turizm salohiyati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilg‘or strategiyalar tahlil qilinadi. Qit‘a tabiiy va madaniy boyliklarga ega bo‘lishiga qaramay, turizm sohasida infratuzilma, xavfsizlik va siyosiy barqarorlik bilan bog‘liq to‘siqlarga duch kelmoqda. Tadqiqot davomida turizmning Afrika iqtisodiyotiga ta’siri, ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar va xalqaro tajribalar o‘rganiladi. Shuningdek, investitsiyalar, raqamlashtirish, vizalar soddalashtirilishi hamda marketing strategiyalari orqali turizmni rivojlantirish bo‘yicha takliflar beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: Afrika turizmi, turizm salohiyati, investitsiyalar, infratuzilma, xavfsizlik, siyosiy barqarorlik, ekoturizm, madaniy meros, barqaror turizm, turizm strategiyalari.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется туристический потенциал Африки, существующие проблемы и передовые стратегии их преодоления. Несмотря на природное и культурное богатство континента, туризм сталкивается с проблемами, связанными с инфраструктурой, безопасностью и политической стабильностью. В ходе исследования изучается влияние туризма на африканскую экономику, предыдущие исследования и международный опыт. Есть также предложения по развитию туризма посредством инвестиций, цифровизации, упрощения визового режима и маркетинговых стратегий.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Африканский туризм, туристический потенциал, инвестиции, инфраструктура, безопасность, политическая стабильность, экотуризм, культурное наследие, устойчивый туризм, туристические стратегии.

ABSTRACT: This article analyzes Africa's tourism potential, current challenges, and emerging strategies to address them. Despite its natural and cultural wealth, the continent faces challenges in terms of infrastructure, security, and political stability in the tourism sector. The study examines the impact of tourism on the African economy, previous research, and international experiences. It also provides recommendations for developing tourism through investment, digitalization, visa facilitation, and marketing strategies.

KEYWORDS: African tourism, tourism potential, investments, infrastructure, security, political stability, ecotourism, cultural heritage, sustainable tourism, tourism strategies.

Afrika dunyodagi eng qiziqarli va o'ziga xos turistik yo'nalishlardan biridir. Uning ulkan geografik hududi, turli xil iqlim mintaqalari, yovvoyi tabiat va boy madaniyati uni sayohatchilar uchun betakror maskanga aylantiradi. Afrikaning turizm salohiyatini ikkita asosiy jihatga bo'lish mumkin: tabiiy va madaniy meros.

AFRIKANING TABIIY TURIZM SALOHIYATI. Afrika sayyohlarga hayratlanarli tabiiy manzaralar va ekoturizm imkoniyatlarini taqdim etadi. Afrika turizm uchun ulkan salohiyatga ega bo'lib, uning tabiiy, madaniy va tarixiy boyliklari qit'aga millionlab sayyohlarni jalb qilmoqda. Afrika ekoturizm bo'yicha dunyodagi eng jozibali manzillardan biridir. Ekoturizm tabiiy muhitni saqlash va mahalliy aholiga foyda keltirishga qaratilgan. *Yovvoyi tabiat va milliy bog'lar.* Afrika dunyodagi eng katta va eng mashhur milliy bog'larga ega. Ularda safari turizmi rivojlangan bo'lib, sayyohlar yovvoyi hayvonlarni tabiat qo'ynida kuzatishlari mumkin. Tanzaniyada Serengeti milliy bog'i mavjud bo'lib, bu bog'da dunyoga mashhur yovvoyi hayvonlarning katta migratsiyasi kuzatiladi. Buyuk migratsiya jarayoni bilan mashhur bu bog'da har yili 1,5 millionta kiyik va minglab boshqa yovvoyi hayvonlarning ko'chishini kuzatish mumkin. Mana shunday ajoyib bog'lardan yana biri Janubiy Afrikadagi Kruger milliy bog'i sanaladi. U yerda siz "Katta beshlik" (arslon, fil, karkidon, leopard, bufalo) hayvonlarini uchratishingiz mumkin, tabiat ixlosmandlari uchun eng yaxshi joylardan biri hisoblanadi. Bostvanadagi

Okavango deltasida siz daryo suvlari sahroga singib ketadigan noyob ekotizimini kuzatishingiz mumkin bo'ladi. UNESCO merosi ro'yxatiga kiritilgan bu hududda sayyohlar kanoe safari orqali noyob tabiatni o'rganishlari mumkin. Kongodagi Virunga milliy bog'i noyob tog' gorillalari yashovchi hudud hisoblanadi. Madagaskar milliy bog'lari esa O'zining noyob flora va faunasi, ayniqsa, lemurlar bilan mashhur. **Sahro va tog' landshaftlari.** Afrikada betakror tabiiy landshaftlar joylashgan. Masalan, Sahroi Kabir. U dunyodagi eng katta qumli sahro bo'lib, Marokash, Tunis, Jazoir kabi mamlakatlarda sayyohlar uchun ekskursiyalar tashkil qilinadi. Tanzaniyadagi Kilimanjaro tog'i Afrikaning eng baland tog'i sanaladi. Uning balandligi qariyb 5,895 metr bo'lib, ekstremal sayohatchilar uchun ajoyib yo'nalishlardan biridir. Namibiya va Botsvanadagi Namib va Kalahari sahrolari esa dunyodagi eng qadimiy sahrolardan biri, ulkan qumtepaliklari bilan turistlar orasida ancha mashhur. **Sohilbo'yi turizmi va orollar.** Afrikada jahon miqyosida mashhur bo'lgan dengiz sayohatlari uchun mo'ljallangan joylar ham mavjud. Bunga misol qilib Zanzibar tropik orollarini keltirish mumkin. Tanzaniyadagi ushbu ajoyib orol toza plyajlari bilan sayyohlarni o'ziga tortadi. Dunyodagi eng mashhur va eng zo'r orol deya tilga olinadigan seyshel orollari ham Afrikada. Seyshel orollari sayyohlik uchun yuqori darajadagi qulayliklarga ega hashamatli dam olish maskani sanaladi. Mozambik plyajlari esa kam o'rganilgan, ammo kristall toza suvlari va marjon riflari bilan dunyoga mashhur.

AFRIKANING MADANIY TURIZM SALOHIYATI. Afrikaning madaniyati ham turizm uchun katta salohiyatga ega. U qadimiy tsivilizatsiyalar, rang-barang urf-odatlar va jahon merosi obidalari bilan mashhur. **Qadimiy tsivilizatsiyalar va tarixiy obidalar.** Timbuktu (Mali) qadimgi ilmiy va savdo markazi bo'lib, islom madaniyati yodgorliklariga boy. O'rta asrlardagi islomiy ilmiy markazlardan biri bo'lib, qadimiy qo'lyozmalar va masjidlar saqlanib qolgan. Lalibela (Efiopiya) esa monolit qoyadan yasalgan tarixiy cherkovlari bilan mashhur. Toshidan o'yib yasalgan ushbu qadimiy cherkovlar UNESCO merosiga kiritilgan. Kartagina (Tunis) qadimgi Foinikiya tsivilizatsiyasining yodgorliklari saqlanib qolgan joy sanaladi. Zanzibar (Tanzaniya) Savdo yo'llari bilan bog'liq tarixiy shahar bo'lib, arab, fors va afrikalik madaniyatlarning

uygʻunligini aks ettiradi. Gorée oroli (Senegal) esa Atlantika qul savdosi tarixiga oid muhim yodgorliklardan biridir. ***Mahalliy anʼanalar va festivallar.*** Afrikaning madaniy xilma-xilligi turizm uchun jozibador omillardan biridir. Turli etnik guruhlarining festivallari va urf-odatlarini sayyohlarni oʻziga jalb qiladi. Mana shunday festivallardan biri bu Marakeş festivali (Marokash) boʻlib, bu festival anʼanaviy musiqa va sanʼat festivalidir. Oshogbo festivali (Nigeriya) esa Yoruba madaniyatiga oid muhim marosimlardan biri sanaladi. Maska festivali (Burkina-Faso, Kot-d’Ivuar) rang-barang niqoblar taqiladigan marosim hisoblanadi. Gnaoua musiqa festivali (Marokash) turistlarga anʼanaviy afrikacha ritm va mistik ohanglarni taqdim etsa, Djembe baraban shoulari (Gʻarbiy Afrika) – jonli ijro va anʼanaviy raqslar bilan birga oʻtadigan tadbirlar sirasiga kiradi.

Turizm Afrikaning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Soʻnggi yillarda oʻtkazilgan tadqiqotlar turizmning qitʼa iqtisodiyotiga ijobiy taʼsirini koʻrsatmoqda. Masalan, 2023 yilda Afrika pandemiyadan oldingi tashrifchilarning 96 foizini tikladi, bu esa turizm sohasining tez tiklanishini va iqtisodiyotga qoʻshgan hissasini koʻrsatadi. Turizm sohasi valyuta oqimini oshirish, yangi ish oʻrinlari yaratish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, turizmni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari, jumladan, raqamli texnologiyalar va barqaror turizm tamoyillari iqtisodiyotning barqaror oʻsishida katta rol oʻynaydi. Bundan tashqari, turizmning rivojlanishi mamlakatlarning bandlik darajasi, infratuzilma, toʻlov balansi va yalpi daromad kabi iqtisodiy koʻrsatkichlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Turizm sohasining oʻsishi tufayli koʻplab mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini yaxshilashga erishgan. Shu bilan birga, Afrika Turizm Kengashi (ATB) kabi tashkilotlar qitʼada turizmni rivojlantirish uchun faoliyat olib bormoqda. Masalan, ATB xorijiy sayyohlar uchun yagona viza tizimini joriy etish orqali Afrikada koʻproq kun oʻtkazish uchun koʻproq xorijiy sayyohlarni jalb qilishni rejalashtirmoqda. Umuman olganda, turizmning Afrikaning iqtisodiyotiga taʼsiri boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlar ushbu sohaning qitʼa iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli hissa qoʻshishini koʻrsatadi.

Afrika qitʼasi soʻnggi yillarda iqtisodiy oʻsish surʼatlari bilan eʼtiborni tortmoqda.

1. Janubiy Afrika Respublikasi (JAR): 373,3 milliard dollar
2. Misr: 347,5 milliard dollar
3. Jazoir: 266,7 milliard dollar
4. Nigeriya: 252,7 milliard dollar
5. Efiopiya: 205,1 milliard dollar
6. Marokash: 152,3 milliard dollar
7. Keniya: 104,0 milliard dollar
8. Angola: 92,1 milliard dollar
9. Kot-d'Ivuar: 86,9 milliard dollar
10. Tanzaniya: 79,6 milliard dollar

Bu ko'rsatkichlar 2024-yil mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) hajmini aks ettiradi.

2023-2024-yillarda Afrikaning quyidagi besh mamlakati dunyoning eng tez rivojlanayotgan o'nta iqtisodiyoti qatoriga kirdi:

- Ruanda: O'rtacha 5,5% dan yuqori o'sish sur'ati
- Kot-d'Ivuar: O'rtacha 5,5% dan yuqori o'sish sur'ati
- Benin: O'rtacha 5,5% dan yuqori o'sish sur'ati
- Efiopiya: O'rtacha 5,5% dan yuqori o'sish sur'ati
- Tanzaniya: O'rtacha 5,5% dan yuqori o'sish sur'ati

Shuningdek, Kongo Demokratik Respublikasi, Gambia, Mozambik, Niger, Senegal va Togoda ham 5,5% dan yuqori o'sish sur'atlari prognoz qilinmoqda.

Efiopiya So'nggi yillarda infratuzilma loyihalariga katta sarmoya kiritib, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga e'tibor qaratdi. Ruanda Texnologiya va xizmat ko'rsatish sohalariga sarmoya kiritib, biznes muhitini yaxshilash orqali iqtisodiy o'sishga erishmoqda. Kot-d'Ivuar Qishloq xo'jaligi va infratuzilma sohalarini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlamoqda. Ushbu mamlakatlarning tajribalari shuni

ko'rsatadiki, diversifikatsiya qilingan iqtisodiyot, infratuzilma rivoji va qulay biznes muhiti iqtisodiy o'sishning muhim omillaridir.

Afrikada turizm sohasi rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, qit'ada ushbu sektor oldida bir qator muammolar va to'siqlar mavjud. Xavfsizlik masalalari sayyohlar uchun eng asosiy to'siqlardan biridir. Afrikaning ba'zi hududlarida turizmning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi xavfsizlik muammolari mavjud bo'lib, ulardan biri bu terrorchilik tahdidlari. Sahroi Kabir janubidagi ba'zi davlatlar, jumladan, Mali, Nigeriya, Somali va Burkina-Fasoda terrorchilik tahdidlari mavjud. Masalan, Boko Haram va Al-Shabab kabi guruhlar sayyohlik sektoriga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Janubiy Afrika, Nigeriya va ba'zi boshqa davlatlarda talonchilik, firibgarlik va sayyohlarga nisbatan hujumlar yuqori darajada. Liviya, Sudan, Kongo Demokratik Respublikasi va Markaziy Afrika Respublikasi kabi mamlakatlarda ichki mojarolar va beqarorlik sayyohlarni jalb qilishni qiyinlashtiradi. Ba'zi Afrika mamlakatlarida transport, mehmonxonalar, yo'llar va internet kabi infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan. Ko'pgina hududlarda avtomobil va temir yo'llar yaxshi rivojlanmagan, bu esa ichki sayohatni qiyinlashtiradi. Masalan, Kongo DR va Chad kabi davlatlarda yo'l sifati yomon. Afrika ichidagi reyslar qimmat va yo'nalishlar cheklangan. Masalan, Evropa yoki Osiyo mamlakatlariga nisbatan, Afrika mamlakatlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar kam. Ayrim mamlakatlarda xalqaro darajadagi mehmonxonalar va turistik xizmatlar yetarli emas. Internet sifati ko'plab joylarda sust bo'lib, onlayn xizmatlar yaxshi rivojlanmagan. Afrikada siyosiy barqarorlik muammolari sayyohlik sektoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun, Gvineya, Mali va Sudan kabi mamlakatlarda so'nggi yillarda harbiy to'ntarishlar bo'ldi. Ba'zi davlatlarda valyuta inflyatsiyasi va iqtisodiy qiyinchiliklar turistik xizmatlarning qimmatlashishiga olib kelmoqda. Ayrim mamlakatlarda korrupsiya va rasmiylarning turizm sektoriga yetarlicha e'tibor qaratmasligi muammo bo'lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun Sayyohlar uchun xavfsiz zonalarni belgilash, Xavfsizlik choralarini kuchaytirish va politsiya nazoratini oshirish, Xavfsizlik bo'yicha global standartlarga mos keluvchi siyosatlar ishlab chiqish, Hukumat tomonidan infratuzilmaga investitsiyalarni ko'paytirish, Xususiy sektor bilan hamkorlikda mehmonxonalar va sayyohlik markazlari

qurish, Arzon va qulay aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, Barqaror siyosiy tizim yaratish, Hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan sayyohlik sektorini qo'llab-quvvatlash, Chet ellik investorlar uchun qulay muhit yaratish zarur. Afrikada turizmni rivojlantirish uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Turizmning rivojlanishi uchun infratuzilma, xizmat ko'rsatish sifati va yangi turistik maskanlarga sarmoya kiritish zarur. Xususi investorlarni jalb qilish orqali mehmonxona, aeroport, yo'l va sayyohlik markazlarini qurish, Xorijiy va mahalliy investorlar uchun soliq imtiyozlari yaratish, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish, Turistik zonalar yaratish va investitsiya forumlarini o'tkazish, Sayyohlik bilan bog'liq kichik va o'rta bizneslarga kredit va grantlar ajratish, Mahalliy aholini turistik xizmatlarga jalb qilish va o'qitish lozim. Afrika mamlakatlari o'z turizm imkoniyatlarini jahon bozorida targ'ib qilish uchun zamonaviy marketing strategiyalaridan foydalanishi darkor. YouTube, Instagram, TikTok va Facebook orqali Afrika tabiati, madaniyati va sayyohlik maskanlarini targ'ib qilish, Mashhur blogerlar va sayohat vlogerlari bilan hamkorlik qilish, Berlin (ITB Berlin), London (WTM London) va Dubay (Arabian Travel Market) kabi yirik sayyohlik ko'rgazmalarida qatnashish, Afrika turizm maqsadli bozorlari uchun maxsus chegirmali paketlar ishlab chiqish (masalan, Yevropa va Osiyo bozorlari). Yevropa va Osiyo davlatlarida Afrikaga bag'ishlangan reklama kampaniyalarini olib boorish ham ancha samarali bo'lishi mumkin. Vizalar bilan bog'liq qiyinchiliklar sayyohlar oqimini cheklaydi, shu sababdan viza jarayonlarini yengillashtirish turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Sayyohlarga internet orqali vizani rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish, Afrika mamlakatlari o'rtasida vizasiz sayohatni yo'lga qo'yish (Afrika Ittifoqining "Single African Passport" loyihasi), Muhim turistik bozorlar (masalan, Yevropa, AQSh, Xitoy) uchun viza talablarini soddalashtirish, Sharqiy Afrika Ittifoqi (Keniya, Uganda, Ruanda) kabi qo'shma vizalarni boshqa mintaqalarga kengaytirish orqali Afrikaga sayyohlar oqimini oshirish borasida kata natijalarga erishish mumkin. Turizm uchun transport, mehmonxona va aloqa infratuzilmasi yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Arzon aviaqatnovlar (low-cost airlines) sonini ko'paytirish va xalqaro reyslarni kengaytirish, Afrikaning ichki transport tarmog'ini mustahkamlash (masalan, Ethiopian

Airlines va Kenya Airways kabi yirik aviakompaniyalarning Afrika bo‘ylab reyslarini kengaytirish), Afrika davlatlari o‘rtasida zamonaviy temir yo‘l tizimini rivojlantirish (masalan, Efiopiya va Jibuti o‘rtasidagi temir yo‘l loyihasi), Mehmonxona va kurortlarga olib boruvchi yo‘llarni rekonstruksiya qilish, Mehmonxonalar, turistik joylar va aeroportlarda bepul Wi-Fi ta’minotini yaxshilash, Onlayn mehmonxona va transport bron qilish tizimlarini soddalashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turistik destinatsiyalarni loyihalashtirish. (n.d.). SIES elektron kutubxonasi.
2. Rustamov, R. (2023). Turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish. ResearchGate.
3. Afrika turizmini rivojlantirish va sotish bo‘yicha organ shakllandi. (2024). eTurboNews.
4. Dostonbek, T. (2024). Role Of Adventure Tourism In The Local Market: Current Segment And Developments. The Peerian Journal, 31, 78-82.
5. Xalqaro turizm bozori. (2023). Renessans Education
6. Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni. (n.d.). Azkurs.org.